



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION TASHABBUSLARI: YANGI OCHA YONDASHUVLAR VA TRANSFORMATSIYALAR”

I respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani

**I Sho'ba: Yangi O'zbekistondagi zamonaviy
ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarda
talaba-yoshlarning o'рни va ahamiyati**

2025-yil 27-mart



As society continues to evolve, literature will undoubtedly play a crucial role in shaping the future of feminist thought.

REFERENCES

- 4) Adichie, Chimamanda Ngozi. "We Should All Be Feminists." TEDxEuston, 2012.
- 5) . Adichie, Chimamanda Ngozi. *Americanah*. Anchor Books, 2014.
- 6) Atwood, Margaret. "The Handmaid's Tale and Oryx and Crake in Context." *PMLA*, vol. 119, no. 3, 2004, pp. 513-517.
- 7) Millett, Kate. "Sexual Politics: The New Feminist Criticism." *New York Times*, 1970.
- 8) 21. Ruhl, Sarah. "In the Next Room (or The Vibrator Play): Feminist Themes in a Historical Context." *Theatre Journal*, vol. 64, no. 3, 2012, pp. 349-367.
- 9) Vance, Carole S (1989). *Pleasure and Danger: Exploring Female Sexuality*. Thorsons Publishers. ISBN 978-0-04-440593-1.
- 10) Butler, Judith (1999). *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity* (2nd ed.). London: Routledge. pp. 160, 9.
- 11) "Spice Girls' 'Wannabe': How 'Girl Power' Reinvigorated Mainstream Feminism in the '90s'". Billboard. Archived from the original on March 23, 2019. Retrieved March 21, 2019.
- 12) Newman & White 2012, p. 14–15.
- 13) Hitchens, Donna (Fall 1991). "Feminism in the Nineties: Coalition Strategies". *Yale Journal of Law and Feminism*. 4 (1): 57–63. Pdf.
- 14) Bikini Kill - The C.D. Version of the First Two Records (Kill Rock Stars) (1994)
- 15) ENGLISH_Feminist+Perspectives+in+Contemporary+Literature.pdf

**MAKTAB O'QUVCHILARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI
RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA O'RGATISH - RAQAMLI
SAVODXONLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MEZONIDIR.**

Xaydarova Zilola Normurodovna,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Madrahimov Yangiboy Sobir o'g'li

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi

Ta'lim sohasi eng tez rivojlanayotgan, mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadigan, zamonaviy axborot texnologiyalari, hamda raqamli resurslarni talab qiladigan istiqbolli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda

ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalar hamda raqamlashtirilgan resurslardan keng foydalanib kelinmoqda. Bu esa ta'lim sifatini, o'qitish samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo'nalishlaridandir. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy mehnati, faollik va ijodiy fikrlashidan iborat bo'lgan ko'pqirrali va murakkab jarayon hisoblanadi[1].

Dars samaradorligini oshirish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liq. Ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar jamoasi hamkorligi izchilligini ta'minlash hamda uni aniq maqsadga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik, ham boshqaruv masalalari hal etiladi.

Raqamli vositalar va resurslardan xabardor bo'lgan va kundalik hayotda bu imkoniyatlardan foydalana oladigan o'quvchilarni fanga, sohaga qiziqtirish pedagogdan katta tajriba va bilimni talab etadi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchidan bir qadam oldinda yurishi, raqamli texnologiyalardan xabardor bo'lishi va dars jarayonida foydalana olishi o'quvchilar jamoasini nazorat qilish hamda o'quvchilarni maqsadli yo'naltirish imkoniyatini oshiradi.

Raqamli texnologiyalardan xabardorlik XXI-asr ko'nikmalari – Soft sikll tarkibiga kirib, raqamli texnologiyalardan kundalik turmush tarzida foydalana olishi o'quvchining shaxs sifatida ijtimoiylashuvini oshiradi.

Soft sikll bu: “Qattiq ko'nikmalar (hard skills) — kasbiy, texnik ko'nikmalar. Har bir kasb egasi muayyan ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ularni namoyish qilish, tekshirish va baholash oson. Tarjimon uchun tillarni bilish, haydovchi uchun mashinani boshqara olish, sartarosh uchun soch va soqolni ola bilish qattiq ko'nikmalar hisoblanadi. Inson qaysi jamoa yoki kompaniyada ishlamasin, bu ko'nikmalar o'zgarmay qolaveradi” [2].

Yumshoq ko'nikmalar (Soft skills) — qo'shimcha, universal ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar. Ular kasbga bog'liq bo'lmaydi, lekin insonning hayotdagi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Odamlar bilan muomala qilish madaniyati, nizolarni hal qilish qobiliyati, odamlarni ishontirish mahorati, moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik, puxtalik, har ishni o'z vaqtida bajarish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi xususiyatlar "yumshoq ko'nikmalar"ga misol bo'ladi. Bunday ko'nikmalar nafaqat ishda, balki hayotning barcha jabhalarida kerak bo'ladi.

“Qattiq ko'nikmalarni faqatgina aniq belgilangan ko'rsatmalar yordamida egallash mumkin bo'lsa, yumshoq ko'nikmalar odamda yo tug'ma bo'ladi, yo hayotiy tajriba bilan rivojlanib boradi”[3].

SOFT SKILLS tushunchasining kelib chiqishi AQShda 1959 yilda harbiy sohaning rivojlantirish doir masalalariga borib taqaladi. Unga ko'ra, harbiy

xizmatchilar kompetentsiyalari borasida olimlar tadqiqot olib borgan chog'larida ko'nikmalarni 2 turga bo'lish maqsadga muvofiq deb hisobladilar. Bunda ular kasbiy ko'nikmalar (hard skills) va shaxsiy sifatlar (soft skills)ga ajratadilar. Bunga sabab urushdagi muvaffaqiyatning ko'pgina qismini jangdagi askarlarni qanday boshqarilishiga qarab ta'minlashini aniqlashganligidandir. O'quv dasturlarda esa buni amalga oshirish uchun o'rgatilmagan. U paytda fizik jismlar bilan bog'liq ishlash ko'nikmalari shakllantirilgan edi. Inson tafakkurida mavjud bo'lgan o'lchash murakkab bo'lgan, mohiyati tushunarsiz - soft skillsga borib taqalavergan [4].

Soft Skills bu inson hayoti va faoliyatida kerak bo'ladigan universal ko'nikmalar jamlanmasi bo'lib:

- Insonlarni to'g'ri muloqot qilish
- Jamoaviy ishlash
- Emotsiya va stressni boshqara olish
- Liderlik qobiliyati
- TIME MENEGMENT-vaqtni boshqarish
- Tizimli va strategik fikrlash qobiliyati
- Muzokara olib borish
- Konstruktiv tandiqidiy fikrlash
- Muammolarni hal qilish
- Kreativlik
- Qaror qabul qila olish kabi ko'nikmalardan iborat.

Bugungi kunga kelib raqamli texnologiyalar yordamida o'rganish, ta'lim olish hamda raqamli vositalar yordamida o'z imkoniyatlarini oshirish zamonaviy ko'nikmalar sirasiga kirmoqda.

Raqamli vositalar yordamida o'rganish o'quvchiga qulaylik va qo'shimcha imkoniyatlarni beradi. O'quvchini raqamli vositalardan maqsadli foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga o'qituvchi va ota-ona hamda o'quvchini qamrab olayotgan ijtimoiy muhit katta ta'sir o'tkazadi. O'quvchi sinfdan sinfga o'tgani sari, yoshi ulg'aygani sari ota-ona va boshqa yaqinlar o'quvchiga bosim o'tkazmasdan do'stona munosabatda bo'lishi kerak, farzand bilan oila kattalri suhbatlashish jarayonida "Face to face" tarzida muloqot qilishi, ya'ni ota-ona farzandi bilan suhbatlashishdan avval suhbat mavzusini aniqlab olishi, suhbat jarayonida suhbatlashish uchun ijobiy emotsional muhitni shakllantirishi, farzand bu suhbatni kutishi, suhbat yakunida berilgan tavsiyalarga amal qilishni samimiy va do'stona aytilishi, ota-onaning farzandigan bildirilgan ishonchni oqlashiga ishonishi kabi farzandni mas'uliyatni o'zida qoldiradigan motivlarga tayanib suhbatni tashkil etish kerak.

Globallashuv davri va texnika asri imkoniyatlaridan ijobiy maqsadlarda foydalanish, nafaqat vaqtning samarali o'tishini ta'minlaydi, balki o'quvchining hayotiy ko'nikmalarini oshiradi, umumiy bilish darajasini oshiradi, o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Zamonaviylik belgisi bo'lgan raqamli vosita va resurslar o'quvchi imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi kerak. Raqamli resurs va vositalar o'quvchini fikrini buzuvchi, vaqtini o'g'irlovchi, dangasalik va boqmandilik, vayronkorlik kabi regressiv ko'nikmalarni shakllantirishga emas, aksincha quyidagi progressiv ko'nikmalarni shakllantirishi kerak:

- o'z vaqtini o'zi nazorat qila oladigan;
- mustaqil o'rgana oladigan;
- bilishdan bilmasliklarini aniqlay oladigan;
- refleksiv munosabatni kirishish;
- kreativlik;
- kommunikativlik;
- tanqidiy mulohaza qilish;
- raqamli resurs va raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish;

O'quvchilarda raqamli vositalardan foydalanish, raqamli resursalar yordamida o'rganish, ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Maktab o'quvchisi maqsadsiz, shunchaki vaqt o'tkazish, zerikmaslik, fanatlik va xobbilari ta'sirida raqamli texnologiyalardan foydalansa, hamda bu foydalanish jarayonida o'zini o'zi idrok qilomasa, o'z harakatlariga refleksiya berolmaslig natijasida dastlab bolada loqaydlik, keyinchalik, jizzakilik, asabiylik, dangasalik, urushqoqlik, boqsandilik kayfiyati shakllanadi. Bu illatlar qurshovida qolgan bola ta'limdan sovib, hatto jamiyatdan ham ayro tarzda yashashni ma'qul ko'radi. Bu kabi holatlar vaqtida oldi olinmasa turli bezorilik va jinoyat ko'chasiga kirib qolishi mumkin. Raqamli texnologiyalar, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanishni o'rganish jamiyat uchun ijtimoiy zaruratga aylanmoqda. Raqamli texnologiya va raqamli resurslardan to'g'ri foydalanmaslik jamiyat uchun ijtimoiy xavfni keltirib chiqarayotgani dunyo tajribasida o'z isbotini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Abdullaeva D.A. Efficiency of computer technology in teaching foreign languages ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, p 1443-1450

2. Jack Cohen. So You Want To Work at a Startup? Hone These 11 Soft Skills First. - Electronic resource: <https://medium.com/the-ascent/so-you-want->

to-work-at-a-startupphone-these-11-soft-skills-first-377e9f27dc45 Date of the application: April 5, 2020.

3. Measuring soft skills & life skills in international youth development programs.URL:<https://www.fhi360.org/sites/default/files/media/documents/resource-yp-measuring-softskills.pdf>. (дата обращения: 09.10.2019).

4. Акрамова Ш.А. Ўқув жараёнида замонавий педагогик технологиялар ва уларни қўллашнинг амалий масалалари. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: ОЎБИ, 2016. - 82 б

5. Haydarova, Z. N. (2023). Ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. *UzMU xabarlari*, 1(10), 225-227.

6. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. *International Journal on Integrated Education*, 6(12), 37-42.

7. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(4), 56-64

8. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O 'QUVCHILARIGA RAQAMLI O'RGANISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

9. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 27-31

10. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA – O'QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIIY MUHIT TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

11. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O'. (2024). RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

12. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. *Mug'allim*, 3(3), 199-206.

13. Haydarova, Z.N.(2024). Ta'limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.

14. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

YOSHLAR ILM-FANNI RIVOJLANTIRUVCHI KUCH

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Xudoyberdiyeva Sevinch Ergash Qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Yoshlar ilm-fanni rivojlantiruvchi kuch mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanning asosiy maqsadi yoshlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, ularning fan, madaniyat va san'at sohasidagi ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdir. Yoshlar yangi fikr va g'oyalar bilan chiqishadi, bu esa ilmiy izlanishlarga yangi yo'nalishlar ochadi. Zamonaviy texnologiyalarni tezda o'zlashtiruvchi yoshlar bu sohada yangiliklar yartadi. Innovatsiyalarga qiziqtirishning noan'anaviy usullarini jamiyat hayoti va ta'lim tizimiga tadbiq etish lozim. Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash, nazariyani amaliyot bilan uyg'unligini anglatga, barcha ta'lim muassasalarni fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish yoshlarning startap loyihalarini qo'llab quvvatlashga qaratilgan platformalarni yaratish kelajak egalari ishtiyoqini yanada oshirib ilm-fanga bo'lgan qiziqishni yuksaltiradi. Ilmiy muassasa va tashkilotlarning ilmiy salohiyatini oshirish, xorijiy nufuzli ilmiy tashkilotlar bilan ham korlik qilish yosh olimlar va ilmiy tadqiqotchilar almashinuvini yanada kengroq amalga oshirish.

Uchinchi Renessans sari dadillik bilan qarab borayotgan imizni ko'rsatadi. Bir ko'rinishda qilinayotgan harakatlar salmoqli natijalar xususida bunday deyishga hali erta. Qonun bilan belgilangan imtiyozlar yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishdi. Mamlakatda ilm-fanni yanada rivojlantirishda yoshlarning o'rni beqiyos. O'zbekistonni 20 milliondan ortiq yoshlar tashkel qiladi katta va yangi avlod bilan yangi uyg'onish davrini tashkel qilshimiz mumkun. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoshlarni qulab quvvatlash boshchiligida amalga oshmoqda. Uchinchi Renessansga poydevor bo'lishini jamiyatimiz taraqqiyotiga befarq bo'lmagan har bir kishini harakatga keltirmoqda. Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarni

MUNDARIJA

TALABANING ISM VA FAMILIYASI	MAQOLA MAVZUSI	BETLAR
	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP xakimovichning II-respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilariga MUROJAATI	3-5
Abdullayeva Maftuna Odiljon qizi	Zamonaviy yondashuvlar asosida adabiyot darslarida qo‘llaniladigan metodlar	6-9
Boboxujayev Jahongir Umarovich	Deontologik yondashuvlarning ta’limdagi zarurati	9-11
O‘rinboyeva Elnora Furqat qizi	Jamiyat birligi ijtimoiy barqarorlik negizi	11-13
O‘rinboyeva Elnora Furqat qizi	“Temur tuzuklari” asaridagi davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi g‘oyalarning bugungi jamiyat boshqaruvidagi transformatsiyasi	13-15
Sharifova Adiba Farxod qizi	Badiiy adabiyot yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ma’naviyatini yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etadi	15-20
Каримов Мухаммаджон Ихтиёр угли	Студенческие стартапы как вклад в инновационное развитие страны	20-24
Shodiyorov Eldor Shari o‘g‘li	Yangi o‘zbekiston:bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish va uning jamiyatdagi o‘rni	24-30
M.A. Mansurova	Jadid ma’rifatparvarlarining tarbiya borasidagi qarashlari	30-34
Abdumutalova Xosila Alisher qizi Zafarova Muxtabar Zoxidjon qizi	Yangi o‘zbekistondagi zamonaviy ta’lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati	34-36
Tursunova Odina Shuhrat qizi	Pirimqul qodirovning “yulduzli tunlar” asaridagi eskirgan so‘zlarning qo‘llanishi	37-40
Polvonov Boburjon	Yangi o‘zbekistonda ilmiy loyihalar va startaplar: talaba-yoshlarning roli va imkoniyatlari	40-44
Abdug‘affarova Arofat Shamsiddinovna	Leksik birliklarni o‘rgatish: filologiya ta’limida so‘z boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish	44-49
Mamairov Begzod Anvar o‘g‘li	Zamonaviy ta'lim jarayonida amaliy	50-53

	shakllantirishda tarbiyaning ahamiyati	
Oltinova Sevinch Oybek qizi	Feministic literature: literary depictions in the struggle for gender equality and women's rights	236-239
Madrahimov Yangiboy Sobir o'g'li	Maktab o'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini raqamli vositalar yordamida o'rgatish - raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish mezonidir.	239-244
Xudoyberdiyeva Sevinch Ergash Qizi	Yoshlar ilm-fanni rivojlantiruvchi kuch	244-245
Salimova Sevara Xidirbay qizi	O'zbekistonda ta'limda innovatsiyalar: talaba-yoshlarning ilmiy-texnik yutuqlari va ularning jamiyat uchun ahamiyati	246-248
Olimjonova Maftunaxon Omiljon qizi	Effective methods for memorizing new words	248-251
podpolkovnik Beysenov Kenjabay Sarsanbayevich	O'zbekiston respublikasida "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari	252-256
Yusufova Dilbar Ruzim qizi	Yangi o'zbekistondagi zamonaviy ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlarning o'rni va ahamiyati	256-258
Jamoliddinov Javlonbek Rustam o'g'li	Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tamoyillari	258-262
Ergashev Dostonbek Pratovich	Yangi o'zbekistonda ilmiy loyihalar va startaplar: talaba-yoshlarning roli va imkoniyatlari	262-266
Sur'atov Abdusamad Qahramon o'g'li	Tabaqalashtirilgan ta'lim tizimidagi innovatsiyalar	267-268
Собирова Раъно	Методы использования нейротехнологий в образовательном процессе	269-272
Qazaqbayev Umidjon Hamdamboy o'g'li	Alisher navoiy asarlarini innovatsion texnologiyalar yordamida tushuntirish	272-274
Mo'minov Yo'ichi Shavkat o'g'li	Boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologik usullardan foydalanish usullari	274-276
Qo'ziyeva Guli Rustambek qizi	Zamonaviy o'qitish metodlari va innovatsion texnologiyalarni boshlang'ich ta'limda qo'llashning o'rni	277-280
Yusupova Zulayho Abdinazar qizi	Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar asosida maqol va rivoyatlarni o'qitish	280-282
Muhiddinova Marjona Adizboy	O'quvchilar bilimni baholashda raqamli	283-288

**“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION
TASHABBUSLARI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA
TRANSFORMATSIYALAR” MAVZUSIDAGI
II-TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

*I Sho'ba. Yangi O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar
talaba-yoshlarning o'rni va ahamiyati*
2025-yil 27-mart

II-QISM

Muharrir: X.Xaknazarov.
Texnik muharrir: M.Ibotova.

Bosishga ruxsat etildi: __.__.2025. Buyurtma: № __ Format 60x90/16
Times New Roman garniturasida raqamli usulida bosilgan.
Hajmi:sh.b.t., 0,99 t.-h.t. Adadi: _____ nusxa.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi